

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING MUSIQIY-NAZARIY BILIMLARI VA ULARNI KASBGA TAYYORLASH MASALALARI

Shukurova Nilufar G‘ayratovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Musiqi madaniyati fakulteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktabi musiqa o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining o‘ziga xosligi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy-nazariy bilimlarini oshirish va ularni kasbga tayyorlash masalasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa o‘qituvchisi, musiqiy-nazariy fanlar, pedagogik kompetensiyalar, musiqiy tasvir, musiqiy dramaturgiya, musiqa, intonatsiya, musiqiy to‘garak

МУЗЫКАЛЬНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ЗНАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ И ВОПРОСЫ ИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Шукурова Нилуфар Гайратовна

*Ташкентский государственный педагогический университет
имени Низоми*

Преподаватель факультета музыкальной культуры

Аннотация: В данной статье рассматривается специфика профессиональной деятельности учителя музыки общеобразовательной школы, вопрос совершенствования музыкально-теоретических знаний будущих учителей музыки и подготовки их к профессии.

Ключевые слова: учитель музыки, музыкально-теоретические науки, педагогические компетенции, музыкальный образ, музыкальная драматургия, музыка, интонация, музыкальный кружок.

MUSICAL-THEORETICAL KNOWLEDGE OF FUTURE MUSIC TEACHERS AND ISSUES OF THEIR PROFESSIONAL TRAINING

Shukurova Nilufar Gairatovna

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi
Lecturer at the Faculty of Musical Culture*

Annotation: This article discusses the specifics of the professional activity of a music teacher in a general education school, the issue of improving the musical and theoretical knowledge of future music teachers and preparing them for the profession.

Key words: music teacher, music-theoretical sciences, pedagogical competences, musical image, musical dramaturgy, music, intonation.

Hozirgi davr zamonaviy jamiyatida ta'lim, inson faoliyatining eng muhim sohalaridan biriga aylandi hamda unga ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotning asosiy, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Zamonaviy musiqa pedagogikasining muhim yo'nalishi, bo'lajak musiqa o'qituvchisini tayyorlash jarayoni samaradorligini oshiradigan vositalar va shart-sharoitlarni izlashdir. "Farzandlarimizni mustaqil fikrlovchi, zamonaviy kasb – hunarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi"¹ – deydi O'zbekiston respublikasining prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Mustaqil fikrlovchi, zamonaviy bilimlarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega chinakam vatanparvar avlodni tarbiyalash birinchi navbatda oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga har jihatdan tayyor bo'lishini taqozo etadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash, avvalambor, ularning musiqiy-ijodiy rivojlanishiga, musiqiy nazariy fanlarni real amaliy faoliyat bilan birgalikda mazmunli bog'lashiga; ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va o'ziga ishonchni hosil qilish, kelajakdagi kasbiy faoliyatining ahamiyatini tushunish va unda o'zini topishga qaratilgan.

Pedagog kasbi, uning mohiyatiga ko'ra murakkab va ko'p qirrali bo'lib, umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa o'qituvchisining oldiga juda ko'p talablarni qo'yadi. Pedagogik faoliyatning turli jihatlarini takomillashtirish musiqa o'qituvchisidan maxsus bilim, ko'nikma, malakalarni egallashni talab qiladi, bu esa o'z navbatida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga va natijada pedagogik mahoratga ega bo'lishga olib keladi.

Oliy ta'limning musiqiy-pedagogik bo'limlarida ko'p yillar davomida musiqa o'qituvchilari tayyorlab kelinmoqda. Pedagogik oliy ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. Bo'lajak musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish mazmuni asosan aniq shartlar, ta'lim mafkurasi hamda ustuvor ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Kasbiy tayyorgarlikdagi o'zgarishlar ham jamiyatning rivojlanishi va ta'lim tizimini rivojlantirayotgan sharoitlar bilan bog'liq.

Umumta'lim maktabida musiqa o'qituvchisining faoliyati murakkab tuzilishga ega bo'lib, turli funktsiyalarni bajarishi bilan ajralib turadi, ulardan eng muhimi, maktab o'quv dasturi doirasidagi musiqa asarlarini musiqiy nazariy tomondan

¹ Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.; O'zbekiston, 2017 yil. 488 bet

tushungan va taxlil qila olgan xolda cholgʻu asboblarida ijro etishdir. Ijrochilik mashgʻulotlari musiqa oʻqituvchisi uchun kasbiy tayyorgarlik majmuasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Musiqa oʻqituvchisining musiqiy-pedagogik faoliyati juda serqirra va rang-barangdir. Musiqa oʻqituvchisi umumiy pedagogik kompetensiyalarga ega boʻlishi bilan birga musiqiy nazariy va boshqa fanlar boʻyicha kuchli nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega boʻlishi, umumiy musiqiy isteʼdodga ega boʻlishi, musiqani yaxshi eshitib idrok eta olishi, badiiy mahorat va boy tasavvurga ega boʻlishi, cholgʻu asbobini mukammal bilishi kerak.

Umumtaʼlim maktabidagi musiqa oʻqituvchisi kasbiy faoliyatining oʻziga xosligi, bolalar musiqa maktabidan farqli oʻlaroq, ushbu faoliyatning dastlab oʻziga xos koʻp funksiyaliligidadir. Oʻz vaqtida D. B. Kabalevskiy umumtaʼlim maktablaridagi musiqa madaniyati fani oʻqituvchilari va bolalar musiqa maktablari oʻqituvchilari orasidagi eng muhim va asosiy farqni taʼkidlab oʻtgan edi. Musiqa maktablari oʻqituvchilarini tayyorlaydigan professional musiqa taʼlimi tizimida musiqaning har bir yoʻnalishi va ularni oʻrganish uchun zarur boʻlgan oʻquv shakllari alohida, ozmi-koʻpmi mustaqil fanlarga boʻlinadi: bu solfejio, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, xor. kuylash, cholgʻuda ijro etish va hokazo. Bu fanlar tor mutaxassislik boʻyicha sikllarga guruhlangan tarzda oʻzlashtiriladi: nazariy, ijrochilik, dirijyor-xor. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun musiqa oʻqituvchilarini tayyorlash esa "Bu boshqa masala, - deb yozadi D. B. Kabalevskiy. Boʻlajak umumiy oʻrta taʼlim maktablari musiqa madaniyati fani oʻqituvchilari uchun alohida yoʻnalish, alohida fanlar ham yoʻq va boʻlishi ham mumkin emas.²

Bundan umumtaʼlim maktabining malakali musiqa oʻqituvchisini tayyorlashga qoʻyiladigan qator talablar kelib chiqadi. "Umumpedagogik tayyorgarlikdan tashqari, u albatta, cholgʻu chala olishi, aniq va ifodali dirijyor-xor texnikasini puxta egallashi, qoʻshiq aytishga qodir boʻlishi, musiqa tarixi va nazariyasini puxta oʻrgangan boʻlishi, musiqa sanʼati tarixi va nazariyasini oʻrgangan boʻlishi, eshitgan musiqasini notalarini yoza olishi va kuyga sodda boʻlsa ham akkompaniment tera olishi kerak. Koʻrinib turibdiki 80 – yillardan keyin koʻp narsa oʻzgargan boʻlishiga qaramasdan umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun musiqa oʻqituvchilarini tayyorlash hozir ham dolzarbligicha qolmoqda.

Masalan, L.V. Goryunova shunday deb taʼkidlaydi: "Musiqa oʻqituvchisini tayyorlashda biron bir fanni (dirijyorlik, fortepiano yoki musiqiy-nazariy fanlar) asosiy fanlardan biri sifatida ajratib koʻrsatish muammoning yechimini taʼminlay olmaydi. Agar ushbu alohida zvenolar yaxlit tuzilma boʻlib ishlamas ekan, fanlararo

² Кабалевский Д. Б. Основные принципы и методы программы по музыке для общеобразовательной школы // Программа по музыке. 1–8 классы. М.: Просвещение, 2006. С. 5–18.

aloqalar va munosabatlar o'quv rejasining barcha mavzularini va talabalar faoliyatini birlashtiradigan asosiy narsaga aylanmasa, ommaviy musiqa ta'limi oldida turgan muammolar o'z yechimini topa olmaydi".³

Maktabdagi musiqa darsi, bo'lajak musiqa o'qituvchisini tayyorlashning badiiy-pedagogik jarayoni quriladigan integral yadrodir. Shartli ravishda maxsus fanlarni quyidagi sikllarga bo'lishimiz mumkin: musiqiy-nazariy va unga yaqin bo'lgan musiqiy-tarixiy fanlar, musiqiy-ijrochilik sikli (xor dirijyorligi, cholg'u asbobi, yakkaxon kuylash), musiqiy-pedagogik sikl (musiqa ta'limi pedagogikasining metodologiyasi, musiqa ta'limi nazariyasi, musiqiy pedagogik amaliyot) va shu fanlarga aloqador fanlardan musiqa psixologiyasi va musiqa ta'limi psixologiyasi, musiqa ta'limi tarixi.

Odatda, har bir sikl ichida muayyan fanlarni o'zlashtirishda talabalar oldida turgan vazifalarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ko'pincha har bir o'qituvchi o'z faniga urg'u berib uni eng asosiy fan sifatida hisoblagan xolda oliy ta'lim muassasasining yakuniy natijasi maktab uchun musiqa madaniyati darslari o'qituvchisini tayyorlash ekanligi yodidan ko'tarilib ketadi.

"Musiqiy tasvir, musiqiy dramaturgiya, musiqa, intonatsiya, musiqa va zamonaviyikni, musiqa va adabiyotning, musiqa va rassomchilikning ichki aloqalarini, asosiysi dasturning tematizmini tashkil etuvchi hayot va musiqa. – Mana shu tushunchalar, atrofida o'quv siklining barcha fanlaridan nazariy va amaliy musiqiy material to'planishi lozim bo'lgan asos nuqtalari hisoblanadi. Bu prizma orqali talaba va o'qituvchi o'z o'quv va pedagogik faoliyatini, metodik mazmunini ko'rishlari kerak ", - deya ta'kidlaydi L. V. Goryunova.⁴

Bo'lajak musiqa o'qituvchisini kasbga tayyorlashda fanlar tuzilmasida musiqiy nazariy fanlar o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lib, ularning nazariy va amaliy o'qitilishi asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Musiqa ta'limida musiqa nazariyasi, garmoniya fanlaridan chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash talab etiladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqiy nazariy fanlardan yetalicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishida ularni dars mashg'ulotlaridan tashqari o'z ustilarida muntazam ravishda mustaqil ishlashlari, mustaqil ta'lim olishlari ham katta ahamiyatga ega.

Buning uchun bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy-nazariy fanlar kursi bo'yicha o'z ustilarida mustaqil ishlashlari har bir darsda nazorat qilinishi zarurdir,

³ Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin).2012.11(126). Горюнова Л. В. Размышления о проблемах музыкально-педагогического факультета // Музыка в школе. 1984. № 1. С. 17–21

⁴ Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin).2012.11(126)

bu esa o‘z navbatida musiqiy-nazariy fanlardan kerakli bilimlarning, ko‘nikma va malakalarning izchil va tizimli ravishda o‘zlashtirilib, kasbiy kompetensiyalarning egallanishiga xizmat qiladi. Har bir tematik bo‘lim oxirida nazorat darslari hamda testlar tashkil etiladi. Ular mashg‘ularda, mustaqil ta‘lim olish natijasida, shuningdek asosiy cholg‘u va boshqa musiqiy-nazariyfanlarda egallangan bilim va ko‘nikmalarni aktuallashtiruvchi vazifalar majmuasidan tashkil topadi. Shu tariqa kompetensiyalar doirasi doimiy ravishda kengayib boradi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar talabalarning o‘z ustida ishlashini tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat deb hisoblaydilar.

Tadqiqotchi hamda pedagog A.K. Gromseva o‘z ustida ishlash jarayonini talaba tomonidan boshqariladigan hamda ta‘limni takomillashtirish maqsadini ko‘zda tutuvchi tizimli tarbiyaviy faoliyat deb tushunadi.⁵

A.S. Maslovning fikricha o‘z ustida mustaqil ishlash faoliyati o‘quv faoliyati kabi shaxsda yangi qobiliyatlarni, yangicha ilmiy tushunchalarga ega bo‘lgan harakat usullarini egallash maqsadini ko‘zlaydi. O‘z ustida ishlash, izlanish eng avvalo o‘zini ozi o‘zgartirish faoliyatidir. Shu bilan birga rivojlanishning yuqori bosqichida o‘z ustida ishlash faoliyati samarali faoliyat, ijod bilan birlashadi va shu bilan ilmiy tushunchalar tizimining o‘zgarishiga xizmat qilishi mumkin.⁶

Bundan tashqari bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining bilim sifatini oshirishda musiqiy-nazariy fanlardan to‘garaklar tashkil qilish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Zamonaviy ta‘lim sharoitida fanlar bo‘yicha tashkil etilgan to‘garaklarning roli keskin oshdi. To‘garak mashg‘ulotlarida talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib, bilimlarning amaliy ahamiyatiga ishonch hosil qiladilar, qo‘shimcha ma‘lumotlar olib, bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanadilar. Musiqiy-nazariy fanlardan tashkil etilgan to‘garaklar talabalarning darsda olgan bilimlarini mustahkamlashga, chuqurlashtirishga, kengaytirishga, ularning qobiliyatini rivojlantirishga, umumiy dunyoqarashni kengaytirishga, shaxsiy fazilatlarining namoyon bo‘lishiga, hamda aynan shu fanlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarining oshishiga va yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi. To‘garaklar talabalarning darsdan tashqari ish faoliyatining asosiy tashkiliy shakli bo‘lib, rejalashtirilganligi, maqsadga yo‘naltirilganligi, tizimliliigi bilan katta ahamiyatga ega. To‘garak mashg‘ulotlari o‘quv dasturi bilan tartibga solinmaganligi sababli, o‘qituvchining tadqiqot faoliyati uchun cheksiz imkoniyatlarni yaratib

⁵ Громцева, А. К. Формирование у школьников готовности к самообразованию: учеб. пособие по спецкурсу для студентов пед. ин-тов [Текст] / А. К. Громцева. – М.: Просвещение, 1983. – 144 с.

⁶ Маслов, А. С. Воспитание мотивации самообразования у учащихся педагогического училища: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 [Текст] / А. С. Маслов. – Казань., 1986. - 247 с.

beradi. Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish jarayonida o'qituvchi taxmin va gipotezalarining tog'ri ekanligini, mashg'ulot davomida qo'llaydigan metod va texnologiyalarining samaradorligini, tayyorlagan materialining amaliy va tarbiyaviy ahamiyatini tekshirib olishi uchun imkoniyat tug'iladi. To'garaklarda ishlash o'qituvchidan aniq xarakter ritmini, vaqt va e'tiborni to'g'ri taqsimlash qobiliyatini, bajarilgan vazifalarning sifatini nazorat qilish, har bir talabaning yutug'ini o'z vaqtida ko'ra olish va rag'batlantirishni talab etadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisini kasbga tayyorlash va musiqiy-nazariy fanlardan bilimlarini oshirishda ustoz-shogird an'anasi asosida individual darslarni tashkil etish ham yuqori samaradorlikka erishishda katta ahamiyatga ega. Individual darslarda gurux darslaridan farqli o'laroq o'qituvchining butun diqqat e'tibori bir talabaga qaratilib, ustoz talabaning ma'lumotlarni idrok etish xususiyatidan kelib chiqqan xolda mavzuni tushuntiradi va talaba o'zlashtirishi uchun qiyinchilik tug'dirayotgan joylarini qayta-qayta tushuntirish uchun sharoit tug'iladi. Individual darslar har bir talabaga moslashtiriladi. Gurux darslarida mavzu o'qituvchi tomonidan belgilansa, individual darslarda talabaga aynan qiyinchilik tug'dirayotgan mavzu ustida ishlash mumkin. Talaba va o'qituvchining diqqat e'tibori muayyan bir to'siqni yengib o'tishga qaratiladi. Talaba aktiv o'ylaydi, mashqalar bajaradi va savollarga javob beradi. Buning natijasida fanni o'zlashtirish sezilarli darajada o'sadi va darsga nisbatan qiziqish ham oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.; O'zbekiston, 2017 yil. 488 bet
2. Кабалевский Д. Б. Основные принципы и методы программы по музыке для общеобразовательной школы // Программа по музыке. 1–8 классы. М.: Просвещение, 2006. С. 5–18.
3. Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin).2012.11(126). Горюнова Л. В. Размышления о проблемах музыкально-педагогического факультета // Музыка в школе. 1984. № 1. С. 17–21
4. Громцева, А. К. Формирование у школьников готовности к самообразованию: учеб. пособие по спецкурсу для студентов пед. ин-тов [Текст] / А. К. Громцева. – М.: Просвещение, 1983. – 144 с.
5. Маслов, А. С. Воспитание мотивации самообразования у учащихся педагогического училища: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 [Текст] / А. С. Маслов. – Казань., 1986. - 247 с.
6. Shukurova, N. (2023). Musiqiy-ritmik mashqlarning bolalarni umumiy rivojlanishidagi ahamiyati. Innovative Development in Educational Activities, 2(1), 57-60.

7. Raxmonberdiyeva, S. M. (2021). Musiqa darslarida bolalarning musiqiy ijodiy faoliyatini shakllantirishning samaradorligi. *Интернаука*, (19-6), 15-16.
8. Raxmonberdiyeva, S. M. (2020). O'quvchilar estetik didini shakllantirishda musiqa tinglash faoliyatining tutgan orni. *Интернаука*, (1-3)
9. Shukurova, N. G. (2021). Computer technology in modern music education. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 1086-1089.
10. Shukurova, N. Pedagogical and Psychological Fundamentals of Teacher Professional Competence. *JournalNX*, 679-681.
11. Ibrahimjanova G.I. Musiqiy tovushlarning xususiyatlari. // *Scientific Journal: "Oriental Renaissance"*. 4-2022.
12. Ibrahimjanova G.A. Musiqiy-nazariy fanlarni o'qitish metodikasining o'ziga xosliklari. // *Ilmiy jurnal: TDPU Ilmiy axborotlari*. 2022/ 6- son.